

## MAHALLA INSTITUTINING BOLA RIVOJLANISHIDAGI RO'LI

**Urozimbetova Sarvinoz Rustam qizi**

*DTPI Maktabgacha ta'lim yo'nalishi 1- bosqich talabasi*

**Jovunboyeva Mashxura Mamasoli qizi**

*DTPI Maktabgacha ta'lim yo'nalishi 1- bosqich talabasi*

**Bahodirova Shaxina Bobirjonovna**

*DTPI Maktabgacha ta'lim yo'nalishi 1- bosqich talabasi*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada mahalla institutining bola rivojlanishidagi o'ni haqida fikr yuritilgan.*

**Ka'lit so'zlar:** *institut, bola, oila, ro'l, mahalla, rivojlanish, jamiyat.*

### KIRISH

Mahalla instituti bir necha asrlik qadimiy tarixga ega bo'lsada, uning huquqiy asoslari yaratilgan va jamiyat boshqaruvida o'ziga xos vakolatlarga ega bo'lgan davri – mamalakatimizning mustaqillika erishgan davri hisoblanadi. Chunki, mus-taqil O'zbekistonning bosh qomusi – Konstitutsiyaning 105-moddasiga mahalla instituti haqida qoidalar kiritilib, uning vakolat muddati belgilab berildi. Konstitut-siyada belgilab berilgan ushbu qoidalar asosida 1993-yil 2-sentabrda “Fuqarolar-ning o'zini –o'zi boshqarish organlari to'g'risida “gi O'zbekiston Respublikasining Qarori qabul qilindi.

Barkamol shaxsnin voyaga yetkazish uchun, eng avvalo, oila, mahalla, maktab, jamiyat va davlat hamkorligini pag'onada ko'tarish lozim. Oila jamiyatning asosi mahalla-milliy qadriyatlar beshigi. “Ahil xonadonda, ma'rifatli mahallada, insonparvar jamiyatda, - deb ta'kidlagan edi O'zbekiston Respublikasining birinchi prezidenti Islom Karimov. Oila davlatning asosiy kurtagi sifatida bolalarning dunyoqarashi, xulqi, diniga ta'sir ko'rsatadi. Oila, mak-tab, mahalla hamkorligining shaxs ma'naviyatini shakillantirishdagi o'rni inson zotining tug'ilib, kamolga yetish uchun ozmuncha vaqt yetmaganidek, uning shaxs sifatida kamol topishida, shu yurt, qolaversa, oilasiga sodiq farzand bo'lib voyaga yetishiga ko'pchilikning mehnati singggadi.

Mustaqillik yillarda mahalla institutining nufuzini oshirish faqat ijtimoiy – iqtisodiy, balki siyosiy, tarbiyaviy va ulkan ma'naviy ahamiyatga ega bo'lgan ustuvor vazifa sifatida belgilab, mamlakatimizda fuqarolikm jamiyatini rivojlantirishda uning ishonchi tayanch va ta'sirchan kuch bo'lib xizmat qilishi uchun zarur shart – sharoitlar yaratish borasida keng ko'lamli ishlar amalga oshiriladi.

Mahalla ming yillar davomida shakillangan, xalqimiz o'ziga xos qiyofasini ko'rsatib turadigan noyob ijtimoiy tuzilma hisoblanadi. Bir – biriga mehr – oqibat ko'rsatib yashash, yaxshi va yomon kunlarda birga yelkadosh bo'lish singasri insonga xos fazilatlar aynan mahallada tarkib topadi.

Fuqarolik jamiyatining eng muhim institutlaridan biri bo'lgan mahalla institute haqida gap ketganda aytish mumkinki, qadim – qadimdan xalqimiz milliy turmush va tafakkur tarziga aylanib ketgan jamoa bo'lib, bir mahalla bo'lib yashash tuyg'usi ijtimoiyhayotning ham uzviy qismi sifatida katta bir ma'naviy qadriyat deb qaralgan.

Mahalla institute imkoniyatlaridan keng foydalanish, alohida turmush sharoitini yanada yaxshilash hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28- yanvardagi PF-60-son Farmoni bilan tasdiqlangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasini "Inson qadrini ulug'lash va faol mahalla yili" da amalga oshirishga oid davlat dasturi ijrosini ta'minlash maqsadida: Mahalla va nuroniy larni qo'llab quvvatlash vazirligi, Moliya vazirligi, Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligining har bir mahalla uchun byudjet tashkilotlarining byudjetdan tashqari jamg'armasi shaklidagi yuridik shaxs hissoylanmaydigan Mahallaning ijtimoiy – iqtisodiy muammolarini hal etish jamg'armasini tashkil etish to'g'risidagi taklifiga rozilik bergan. Birinchi Prezidentimiz I.Karimov aytganidek, "odamlarning siyosiy ongi, siyosiy madaniyati, siyosiy faolligi yuksalib brogan sari, davlat vazifalarini nodavlat tuzilmalar va fuqarolarning o'zini – o'zi boshqarish organlariga bosqichma - bosqich o'tkazib borish zarur. Bu borada o'zini o'zi boshqaradigan idoralarning mahallalarining nufuzini va mavqeini oshirish, ularga ko'proq huquqlar berish katta ahamiyat kasb etadi" deb ta'kidlagan.

#### **XULOSA:**

Bugungi kunda mahalla institutlari faoliyatida qaror o'zgarishlar kuzatilmoqda. Ayniqsa karantin davrida hukumat va aholi o'rtasidagi munosabat- larni tartibga solib turishda mahalla institutining ahamiyati yanada oshib ketdi. Davlatimiz rahbari ilgari surgan tashabbus asosida mahalla institutining isloh qili-nishi ijtimoiy ko'makka muhtoj oilalarga yordam berish jinoyatchilik, oilalarda zo'ravonlikning oldini olish, aholibandligi, ijtimoiy muhofazasi kabi masalalarni hal etishda muhim ahamiyat kasb etadi. Bu vazifalarni bajarishda har bir mahallaning o'z yondashuvi yo'nalishi bo'ladi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI :**

1. Mahalla institutining jamiyat hayotidagi ro'lini mustahkamlash va moliyaviy imkoniyatini yanada kengaytirish chora – tadbirlari to'g'risidagi qonun. 2022 – yil. 28-yanvardagi PF – 60- son.
2. Z. G'OFUROV, S. Toshev. Ma'naviyat saboqlari. Qarshi . 1999-yil.
3. Lex.uz.
4. Yuz.uz.
5. Ijtimoiy.uz.